

BOG‘CHA PSIXOLOGI, BOLALAR PSIXOLOGIYASI

G‘aybullayeva Munira

Buxoro viloyati Qorovulbozor tumani

9- Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi.

Annotasiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida psixologning tutgan o’rni, vazifalari, amaliyotchi psixologning faoliyati, bolalar bilan faoliyat olib borishi haqida yoritilgan. Shuningdek, bog‘cha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik jixatdan parvarish qilinishi, bolaning psixikasi, xulq-atvori katta yoshdagi kishining psixikasidan ancha farq qilinishi, bola psixikasining moddiy negizi bo’lgan nerv sistemasi o’ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar keltirilgan .*

Kalit so‘zlar: *Psixolog, bola, rivojlanish, muomila, metod va usullar, psixologik xizmat, psixika, yosh davr psixologiyasi.*

Mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti istiqbolidagi vazifalarni amalga oshirish uchun eng zarur omil hisoblanadi. Ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixologlar yosh avlodga ta’lim va tarbiya berish jarayonida ularning psixologik va yosh xususiyatlarini bilishi, har bir psixologga individual yondashishi, muomala qilish mahoratiga ega bo‘lishi, bolalarlarga kasb-hunar tanlashlarida yetarlicha yordam va maslahatlar berishi zarurdir. Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan amaliyotchi psixologlar Nizom asosida ish olib bormoqdalar. Hozirda maktabgacha ta’lim tashkiloti amaliyotchi psixologlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi uslubiy tavsiyalar zarur ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, ham ma’naviy, ham aqliy rivojlanishi, o‘zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta’lim-tarbiyaviy hamda ma’naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Amaliyotchi psixologning tarbiyachi-pedagoglar, maktabgacha yoshdagi bolalar, ota-onalar hayoti bo‘yicha muammolariga shaxsiy tajribasi bo‘lmay turib, maslahat berishga haqqi bormi? Bu muammo birinchi navbatda oilaviy hayot va oilada bolalarni tarbiyalash masalalariga tegishlidir. Bu masalani muhokama qilishda psixologlar anchadan beri bahslashadilar va hali umumiy qarorga kelinmagan. Ba’zilar bu savol xirurg haqidagi: “biror marta operasiya stoliga Ma’lumki, tibbiyotda bunday savol tug‘ilmaydi. Shuning uchun, psixologlarning birinchi guruhi, mutaxassis, amaliyotchi sifatida har xil yoshdagi insonlar bilan turli muammolar bo‘yicha ishlashni bilishi kerak, deb hisoblaydilar. Psixologning xususiy hayoti va shaxsiy tajribaning

mavjudligi yoki yo‘qligi katta ahamiyatga egaemas: muhimi bu kasbiy mahorat. Boshqa psixologlarning fikricha, amaliyatchi psixologning shaxsiy hayotiy tajribasi muhim ahamiyatga ega, hech qanday eng yuksak kasbiy mahorat va bilimlar bilan ham almashtirish mumkin emas. Ularning fikricha, nizolar va ularni boshqarish usullari haqida o‘n soatlik ma’ruzani eshitish mumkin, lekin agar siz yaqin kishingiz bilan bo‘lgan nizoni boshdan kechirmagan bo‘lsangiz, munosabatlarni buzmasdan amaliy hal qila olmagan bo‘lsangiz, ish joyingizda nizolarni boshqarishga kirishmang. Masalan: Pianinochini kuzatsak. U soatlab texnik vosita hisoblanmish qo‘l va barmoqlarni mashq qiladi. Lekin u chalayotganda “texnik barmoqlari” tagida asar “musiqaviy hayot” sifatida yashay boshlaydi, o‘zining musiqiy ruhiyatiga ega bo‘ladi. Siz doim texnik ijrochi bilan mumtoz ijroni ajrata olasiz. Hozirgi vaqtida maktablarda va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ikki yo‘l universitetlarning psixologiya fakultetini bitirgan va ikkinchilari-maktabda ma’lum vaqt o‘qituvchi bo‘lib ishlab, keyin amaliyatchi psixologlar fakultetini bitirib, so‘ng o‘z maktablariga, bog‘chalariga psixolog sifatida qaytib kelganlar. Bu ikki psixologlar guruhining qaysi biri mahsulorroq, degan savol tug‘iladi. Asosiy ma’lumotli psixologlar yaxshi kasbiy bilimga egalari, psixologik metodlarni yaxshi biladilar. Lekin ular muassasa hayotidagi ishning barcha xususiyatlaridan xabardor emaslar. Ikkinchi mutaxassislikni egallagan o‘qituvchi psixologlar, aksincha, mакtab va bog‘cha pedagogik amaliyat bilan yaxshi tanishlar, lekin psixologik bilimlar va psixologik ish ko‘nikmalari yetishmasligini his qiladilar. Psixolog bitiruvchilar dastlab maktabga yoki maktabgacha ta’lim tashkilotiga borganda, o‘zlarini himoyasiz sezadilar, birinchi navbatda nima qilish kerakligini, o‘zini qanday tutishni, kim bilan qanday gaplashishni bilmaydilar. Ular mакtab va bog‘chada muammolarga ko‘milib ketadilar, hammasini birdan bajarib, mакtab va bog‘chaga foydali ekanligini ko‘rsatishga urinadilar. U yerda har kuni, dam olish kunlari, hatto kechalari ham qolib ketadilar. Natijada zo‘riqish, charchash, ish qobiliyatining pasayishi ko‘zga tashlanadi. Shu o‘rinda psixologlar psixologik xizmat haqidagi Nizomda keltirilgan psixoglarning huquqlari va javobgarligi bilan tanishishlari maqsadga muvofiqdir.

Psixologik ta’limda bolalar psixologiyasi bo‘yicha umumiylar ma’lumotlar bilan chegaralanmaydi, balki maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish natijalariga tayanadi, pedagogik jamoaning malakasi va xususiyatlarini, bolalar va ota-onalarning o‘ziga xosligini hisobga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish psixologning har bir bolaning ruhiy salomatligi va rivojlanishining to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydigan faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bola ruhining individual, rasmiy-dinamik xususiyatlarini hisobga olish alohida o‘rin tutadi, bolalarning aqliy holati, jarayonlari, xatti- harakatlari va faoliyatining dinamikasini aniqlaydigan turli xil

temperamentdagi bolalar bilan muayyan strategiya va taktikalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Maktabgacha psixologik yoshdagi davrda individuallashtirilgan shaxsiy neoplazmalarining avvalgi psixologik yoshi oxirida paydo bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarini (kuch, tezlik, hajm, sur’at, ritm) takomillashtirish, rivojlanish, mazmun jihatidan va rasmiy-dinamik xususiyatlar davri hisoblanadi. Shaxsiylashtirish jarayoni qonuniy ravishda bolaning shaxsiy rivojlanishini amplifikatsiya qilish jarayonining variantlaridan biridir. Va bu, ko‘p jihatdan, bolalik davrida bola shaxsiyatining shakllanishi, uning keljakdagi hayotiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalikda biz bilan sodir bo‘lgan barcha voqealar bizning keyingi rivojlanish davrimizda chuqr iz qoldiradi. Bolaning qiyinchilik va yordamga muhtoj chog‘ida ota-onal sezgirligi va farzandiga nisbatan mehr-muhabbatining etarli bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida psixologik xizmat ko‘rsatishda asosiy e’tiborni – bolaning muammolari qor kabi o‘sib borgunga qadar kutmasdan, uni bartaraf etish, bolalar psixologiga o‘z vaqtida murojaat qilishdir. Har qanday muammoni qisqa vaqt ichida bolaga azob-uqubat va og‘riq keltirmasdan ilgari hal qilish, yuzaga kelgan muammolarni ota-onalarga etkazish va hamkorlikda ish olib borishdir.

Ko‘pgina bolalar muammolari faqat vaqtinchalik va psixologning qisqa muddatli ishini talab qiladi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologidan qisqa muddatli ish dasturini tuzib chiqishni talab qiladi va ayni chog‘da individual tarzdagi maxsus dastur bo‘lishi kerak. Bolalar bir marotaba psixolog xizmatidan baxra olgandan so‘ng va uning natijasi ijobjiy tomonga o‘zgarganini his qilsalar, nafaqat maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologiga nisbatan ishonch, mehr, sevgi, hayrixohlik va albatta yuksak hurmat bildiradilar, balki, maktabgacha tashkilotga va u erdag‘i tarbiyachilarga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo‘ladilar. Shu sababdan psixolog individual va guruhli ishslash jarayonida hech bir holatni va bolalar xususiyatini ko‘zdan qochirmsligi kerak.

Bunda maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi quyidagi yo‘nalishlar asosida ish olib borsa samarali natija oladi.

Psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari:

1. Psixologik ma’rifat.
2. Psixologik oldini olish.
3. Psixologik diagnostika.
4. Psixologik tuzatish.
5. Psixologik maslahat

Shunday qilib psixologik yordam tizimi bolalar, ota-onalar va tarbiyachilar uchun rivojlanish, ta’lim-tarbiya, moslashuv, har bir o‘tish yosh davri masalalari bo‘yicha o‘z vaqtida malakali maslahat, uslubiy, psixodiagnostik va psixokorreksion yordam ko‘rsatishda yordam berishi aniq. Ma’lumki, maktabgacha ta’lim muassasalarida

bolalarda shu muhitga moslashishda yuzaga keladigan muammolar bilan birgalikda ular ruhiyatidagi psixoemotsional holatlarning o‘zgarishi ham uchrab turadi. Albatta bolalardagi psixoemotsional buzilishlar ularning bir muhitdan ikkinchi bir muhitga moslashishida yuzaga keladigan kuchli hayajon va ruhiy zARBalar ta’siri ostida yuzaga keladi. Mana shunday muammolarni hal qilishda esa mакtabgacha ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologning ish tartibida bolani stress holatdan chiqarish, ichki zo‘riqishni yengillashtirish,

hayotiy vaziyatga nisbatan optimistik nuqtai nazar bilan qarash imkoniyatini aniqlash imkonini beruvchi metodikalar o‘rin egallaydi. Bu o‘rinda biz amaliyatchi psixologlar o‘z faoliyatlarida quyidagi metodikalardan foydalanishlarini tavsiya etamiz:

Musiqa terapiyada – asosan shaxsni ruhan tinchlantirish va bo‘sashtirish, hissiy holatini tuzatish va faollashtirish uchun turli xil kuy va musiqalardan foydalaniladi.

Aromaterapiyada – estetik maqsadlarda relaksatsiya uchun xushbo‘y moddalar qo’llaniladi.

Svetoterapiya (ranglar oqali davolash)da – qo‘rquv, qo‘zg‘aluvchanlik, ruhiy siqilish, zo‘riqish jarayonida turli xildagi ranglar ko‘rsatiladi.

Raqs terapiya (raqs oqali davolash)da – mushaklarni qisqarishlarini olib tashlash uchun raqs harakatlaridan yoki musiqaga taqlid qilishdan foydalaniladi. Tana terapiyasida – tana bilan ishlash usullari, uning maqsadi, o‘zini jisman va ruhan yaxshi his qilishini orttirish, kayfiyatini ko‘tarishga qaratiladi. Art-terapiyada ijod bilan bog‘liq bo‘lgan izoterapiya (tasviriy san’at orqali davolash), svetoterapiya (ranglar orqali davolash), fototerapiya (rasmlar orqali davolash), skazkoterapiya (ertaklar orqali davolash), muzlykoterapiya (kuy va musiqalar orqali davolash), kollajirovanie (photoshop, fotomantaj orqali davolash).

Art-terapiyada shaxsning ko‘pqirrali ichki imkoniyatlarini ochish bilan birga ruhiy jarohatlanish, ichki ziddiyatlar va qo‘rquv kabi jiddiy psixologik muammolar bilan kurashish imkonini ham beradi.

Bolaning psixik rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo‘ladigan muloqoti ham muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo‘lgan qiziqish bolada kattalarga bo‘lgan qiziqishidan biroz keyinroq 1 yoshning oxirlarida paydo bo‘ladi. Biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog‘cha yoshi davrida mustahkamlanib boradi. 4-5 yoshli bola uchun eng og‘ir jazo — bu uni o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishdan mahrum etishdir. Bolalar guruhiga tushib qolgan davrdan boshlab bolaning individual rivojlanishini uning “bolalar jamiyati” a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlarini hisobga olmay ko‘rib chiqish va o‘rganish mumkin emas. Bolalar o‘z tengdoshlari jamoasiga intiladilar. Biroq har doim ham ular tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatishga erishavermaydilar. Ba’zi bolalar guruhda ancha faol bo‘lib, o‘zlarini go‘yo “suvdag‘i baliqday” his etadilar.

Ayrimlari anchagina noqulaylik, o‘zlariga nisbatan ishonchsizlik, boshqalaiga tobelikni his etadilar. Tengdoshlar bilan bo‘lgan ijobiy munosabatlar bolada birdamlik hissini kuchaytirib, uning guruhgaga qattiq bog‘lanib qolishiga sabab bo‘ladi. Biroq ijobiy munosabatlari yo‘qligi bolani tushkunlika solib, uni xavotirlanuvchi yoki agressiv qilib qo‘yishi mumkin. Bu esa unda bolalarga, umuman, odamlarga nisbatan salbiy adekvatli munosabatni shaklantirishi, ulami yolg‘izlikka moyil qilib qo‘yishi ham mumkin. Bunda simpatiya munosabatining bir tomonlama yoki ikki tomonlamaligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bolalarda noto‘g‘ri shakllanib ulgurgan muloqot motivlarini qaytadan qurish, avvalo, boshqalarning flkri bilahisoblashishga o‘rgatish ancha foydalidir. Kattalaming bog‘cha yoshidagi bola shaxsi shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri bolaning boshqa faoliyat: rasm chizish, turli narsalar yasash, applikatsiyalar tayyorlash, o‘quv vazifalarini bajarish vaqtida ham amalga oshiriladi. Ushbu faoliyatlar davrida bolalarda kattalar va tengdoshlari tomonidan ijobiy bahoga sazovor bo‘ladigan narsani yaratishga yo‘nalganlik qaror topadi, ijtimoiy yo‘nalganlik shakllanib boradi, bilish motivlari, irodaviy va boshqa shaxsiy xususiyatlar tarkib topib boradi.¹

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Les-gaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F.Lesgaftning bu fikri rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikriga to‘la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo‘lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o‘sishida albatta o‘z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta’sir o‘tkazish kuchi jihatidan g‘oyat mas’uliyatlidir. Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o‘tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog‘cha yoshiga o‘tgach, uning faoliyat doirasi ancha kengayib, mustaqilligi yanada ortadi. Uning o‘yinlari, xatti-harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bo‘la boshlaydi.

Ikkinchidan, bolaning butun faoliyatida nutqning roli orta boradi.

Uchinchidan, bola maktabgacha yoshga o‘tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning yashash

¹ Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36

sharoitida yuzaga kelgan bu o‘zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o‘sib kamol topishniga ta’sir etmay qolmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy jihatdan rivojlanishi hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bolaning jismoniy jihatdan eng tez o‘sadigan davri bir-ikki yoshligiga to‘g‘ri keladi. Bola uch yoshga to‘lib maktabgacha yoshiga o‘tgandan so‘ng uning jismoniy jihatdan o‘sishi bir qadar sekinlashadi. Bolaning jismoniy jihatdan o‘sishidagi notejislik bu davrda ham davom etaveradi. Masalan, bola tug‘ilgandan bir yoshga to‘lguncha bo‘yining o‘sishini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining rivojlanishida ularning nerv sistemalarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar juda katta rol o‘ynaydi. Bolalar nerv sistemalarining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Yangi tug‘ilgan bola bosh miyasining o‘rtacha og‘irligi 380–400 gr keladi. Bola bog‘cha yoshiga yetguncha uning miyasi g‘oyat tez rivojlanib, deyarli uch baravar ko‘payadi. Demak, bog‘cha yoshiga yetgan bolalar miyasining og‘irligi 1100–1200 g ga yetadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining bundan keyingi takomillashishi davomida bosh miya po‘sti qismidagi markazlarni bir-biri bilan tutashtiruvchi nerv tolalari ham miyelin qobig‘i bilan qoplanma boshlaydi. Bosh miyadagi nerv tolalarining miyelin qobig‘i bilan qoplanishi aks ettirish jarayoni, ya’ni psixik jarayonlar va ularning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Nerv tolalari miyelinizatsiyalashganda, birinchidan, qo‘zg‘alishlarning nerv tolalaridan tez o‘tishi ta’minlansa, ikkinchidan, qo‘zg‘alishning faqat tegishli markazgagina borishini ta’minlaydi. Buning natijasida organizmga tashqi muhitdan ta’sir etib turuvchi turli qo‘zg‘atuvchilar ta’siri tufayli yuzaga keladigan shartli reflekslar (muvaqqat bog‘lanishlar) nisbatan tez hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir qo‘zg‘alishning tegishli markazigagina aniq borishi bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘z harakatlarini epchillik bilan idora qila olishlarini ta’minlaydi. Muvaqqat nerv bog‘lanishlari tez hosil bo‘ladigan bo‘ladi.²

Rus fiziologlari N.I.Krasnogorskiy va A.G. Ivanov-Smolenskiylar tomonidan ko‘plab o‘tkazilgan tajribalarning ko‘rsatishicha, MTM yoshidagi bolalarning nerv sistemalari o‘z faoliyati jihatidan hali qat’iy bir izga tushmagan, o‘zgarib turadigan bo‘ladi. Markaziy nerv sistemasi faoliyatining o‘zgaruvchanligi xususan ilk yoshda ravshan ko‘rinadi. Masalan, bu yoshdagi bolalarda qo‘zg‘alish jarayoni tormozlanish jarayonidan ustunlik qiladi. Mana shuning uchun ham bu yoshda bolalar juda serharakat va o‘ta hayajonlanuvchan bo‘ladilar. MTM yoshidagi bolalarda qo‘zg‘alish jarayonining nisbatan ustun bo‘lishi tufayli muvaqqat bog‘lanishlar kattalarga qaraganda sekinlik bilan maydonga keladi. Shu sababli ularda muvaqqat bog‘lanishlarni yuzaga keltirish takror-takror ta’sir etishni talab qiladi. Biroq, shunga qaramay, hosil etilgan muvaqqat

² Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991.

bog‘lanishlar juda yengillik bilan tormozlanib (o‘chib) qoladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar oliy nerv faoliyati tashqi muhitdan bolaga ta’sir qilayotgan jarayonlari ilk yoshdagi bolalarniki kabi keng irradiatsiyalash (atrofga keng yoyilish) xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada miya po‘stining ma’lum markazida yuz bergan qo‘zg‘alish yoki tormozlanish hodisasi miya po‘stida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. Bu bog‘cha yoshidagi bolalarning ayrim psixik jarayonlarida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z diqqatlarini biron narsaga uzoq muddat davomida qarata olmaydilar.³

Nerv sistemasining taraqqiyoti bog‘cha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab taraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga va xususan, yashash sharoitlariga, ya’ni oilada hamda bog‘chada qanday tarbiyalanishiga bog‘liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, uning nerv sistemasi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola nerv sistemasining taraqqiy etishida uning atrofidagi har turli narsa va hodisalar bilan bevosita mustaqil munosabatda bo‘lishi ham nihoyatda katta rol o‘ynaydi. Chunki bunda, ya’ni bolaning mustaqil harakatlarida uning nerv sistemasi aktiv faoliyatda bo‘ladi va tez rivojlanadi. Mana shu holatni nazarda tutib, tarbiyachilar bolalarning mustaqil faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etishga alohida e’tibor berib borishlari lozimdir.

Bola bog‘cha yoshiga yetgach uning psixik taraqqiyotida jiddiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi. Bog‘cha yoshidagi bola mustaqil faoliyatda bo‘la olishi uchun zarur bo‘lgan ikkita qudratli kuchga egadir.

Birinchidan, ma’lum darajada o‘ziga bo‘ysundirilgan harakat apparatiga, ikinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o‘z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo‘la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlnana borib, uning tashqi muhit bilan bo‘lgan munosabatlarida anchagina o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomonidan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo‘lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomonidan, kattalar bilan bo‘lgan munosabatlari murakkab, ko‘p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Shu narsa xarakterlik, kichik bog‘cha yoshidagi (3–5 yoshli) bola doimiy yordam va g‘amxo‘rlik talab qiladigan obyektdan sekin-astalik bilan oila hamda bolalar guruhining faol a’zosiga aylana boshlaydi. Demak, bola bu davrdan boshlab, muhtojlikdan qutilib, o‘zi ham boshqalarga ma’lum darajada yordam bera oladigan, o‘zining burchi, vazifalari, qiziqishlari hamda

³ Поддьяков Н.Н. Мысление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222

xilma-xil ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxsga, jamoa a’zosiga aylana boshlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo‘ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi stimul (omil) hisoblanadi. Bog‘chagacha tarbiya ishidagi bolalar organik ehtiyojlardan tashqari ijtimoiy va intellektual ehtiyojlarning dastlabki kurtaklari yuzaga kela boshlaydi. Masalan, bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalar hali yaxshi gapira olmasalar ham, haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladilar. Ular ko‘zlariga ko‘ringan har bir narsani qo‘llari bilan timirskilab ushlab ko‘rmagunlaricha tinib-tinchimaydilar. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan mana shunday qiziquvchanlik ularda intellektual ehtiyojlarning yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.⁴

Bog‘cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy intellektual va axloqiy ehtiyojlar yaqqol ko‘rina boshlaydi. Agar bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola uzoq vaqt davomida yolg‘iz o‘zi biron o‘yinchoq bilan mashg‘ul bo‘lib o‘tira olsa, bog‘cha yoshidagi (xususan o‘rta va katta **guruh** bolalari) bola bunday yolg‘iz o‘ynashga toqat qila olmaydi. Ularda o‘zlariga yaqin bo‘lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo‘lish ehtiyoji tug‘iladi. Ular tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o‘z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Natijada bu yoshdagagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar tabiatlariga xos bo‘lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri har narsani bilib olishga bo‘lgan ehtiyojdir. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan ehtiyojlar ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola uchun yangilik bo‘lib tuyiladi va, binobarin, bola uni har tomonlama bilib olishga intilaveradi. Shuning uchun ham ular juda ko‘p savollar beradi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida bog‘cha muhiti juda katta rol o‘ynaydi. Bog‘chadagi tartib, intizom va turli-tuman ta’limiy mashg‘ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning garmonik ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug‘diradi.

Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, odatlar o‘z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik holatda takrorlana borishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni tarbiyalash deganda, ularda ijobiy foydali odatlarni hosil qilinishini tushunamiz. Bog‘cha yoshidagi davrda hosil qiligan mustahkam ijobiy odatlar kishining butun umri davomida saqlanib qoladi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida qiziqishning ham roli g‘oyat kattadir. Qiziqish, xuddi ehtiyoj kabi, bolani biron faoliyatga undovchi harakatga soluvchi omillardan biridir. Bog‘cha yoshidagi bolalar hamma narsalarga

⁴ Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36

birdek qiziqavermaydilar. Ular ayrim narsalarga ko‘proq, boshqa bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat‘iy hamda mustahkam bo‘lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez ko‘chib turadi, juda tarqoq va yuzaki bo‘ladi. Ular narsa va hodisalarning mohiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va hodisalarning o‘zigagina qiziqadilar. Shu sababli bog‘cha yoshidagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi bog‘chada turli mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o‘tkazishi, kitoblar o‘qib berish orqali bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga harakat qilishi lozim.⁵

Xulosa qilib aytganda, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi va uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug‘ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarni rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror sohaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu sohasini yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o‘ynaydi. Bog‘chada bolalarning birgalikda ta’lim-tarbiya olishlari, birgalikda o‘ynashlari va birgalikda ovqatlanishlari ularda birlashish tuyg‘usini yuzaga keltira boshlaydi. Ko‘pchilik bo‘lib bir o‘yinni o‘ynash yoki biron vazifani bajarishda o‘z xatti-harakatlarini kelishib olish, rollarni taqsimlash va bir-birlariga yordam berish kabi jamoa hayotiga oid fazilatlar namoyon bo‘la boshlaydi. Bolalar jamoasini mustahkamlashda ularning jamoadagi endigina yuzaga kelayotgan o‘zaro murakkab munosabatlari, ya’ni bir-biriga bo‘ysunish, bir-biriga yon bosish kabi munosabatlar katta rol o‘ynaydi hamda bolalarning psixik taraqqiyotiga yordam beradi.

Ijtimoiy xayotimizdagи o‘zgarishlar mustakillik, respublikamizdagи demokratiyaning tantanasi, huquqiy davlat tuzimiga intilish psixologiyaning qonuniyatları va ilmiy materiallarini o‘rganish hamda ulardan turmushda foydalanishni talab qiladi. Psixologiya fani tarmoqlaridan biri – bolalar psixologiyasidir.

Bolalar psixologiyasida bolaning tug‘ilgan paytidan boshlab, to maktab yoshiga etgunga qadar psixik jixatdan taraqqiy etishi qonuniyatlarini va shaxsiy psixologik xususiyatlarning tarkib topishini o‘rganadigan fandir. Bola inson sifatida tashqi jihatdan katta yoshli odamlarga o‘xshassa ham, o‘zining psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik xususiyatlarning mazmuni jihatdan katta yoshli odamlardan keskin farq qiladi.

⁵ Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://president.uz/uz> - Узбекистон Республикаси Президентининг расмий вебсайти.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддъяков Н.Н. Мысление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222
4. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарқ», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустакил ижодий фикрлаш. - Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). - М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991.
10. Выготский Л.С. Мысление и речь. - М.: «Педагогика», 1982.